

Fayzullo FAROMARZI,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik
instituti tayanch doktranti
faromarzfayzullo@gmail.com*

HOFIZ-I ABRUNING “ZUBDAT AT-TAVORIX” ASARIDA AMIR TEMUR JOME' MASJIDI TARIXI

ИСТОРИЯ МЕЧЕТИ АМИР ТЕМУРА В ПРОИЗВЕДЕНИИ ХОФИЗ-И АБРУ «ЗУБДАТ АТ- ТАВОРИХ»

THE HISTORY OF THE MOSQUE AMIR TEMUR IN THE WORK OF KHOFIZ-I ABRU «ZUBDAT AT- TAVORIKH»

Annotatsiya: Maqolada tarixchi Hofiz-i Abru tomonidan “Zabdat at-tavorix” asarida keltirilgan Amir Temur jome’ masjid haqidagi ma’lumotlari tahlil qilinadi. XIV-XV asrning boshqa manbalarida uchramaydigan ushbu ma’lumotlar orqali obidaning qurilish jarayoni va uning bizga qadar yetib kelmagan ayrim detallari haqida bilib olishimiz mumkin. Zero mazkur dalillar tadqiqotlarga yetarli darajada jalb etilmagan. Taqiqot jarayonida tarixchi keltirgan dalillar o’sha davrning 10 yaqin asarlari asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so’zlar: Amir Temur, “Zubdat at-tavorix”, masjid, xoro, manjaniq, Hofiz-i Abru, bunyodkorlik, Saraymulkxonim, Samarqand, koshin, peshtoq.

Аннотация: В статье анализируются сведения о мечети Амира Темура, данные историком Хафиз-и Абру в его книге «Забдат ат-таварих». Благодаря этой информации, которой нет в других источниках XIV-XV веков, мы можем узнать о процессе строительства памятника и некоторых его деталях, до нас не дошедших. Потому что это свидетельство недостаточно исследовано. В ходе исследования представленные историком свидетельства сравнивались примерно с 10 работами того периода.

Ключевые слова: Амир Темура, «Зубдат ат-таварих», мечеть, гранит, катапульта, Хафиз-и Абру, строительство, Сараймулханым, Самарканд, узор, портал.

Annotation. The article analyzes the information about the Amir Temur Mosque given by the historian Hafiz-i Abru in his book “Zabdat at-tavorikh”. With this information, which is not found in other sources of the XIV-XV centuries, we can learn about the process of construction of the monument and some details of it that have not reached us. Because this evidence is not sufficiently involved in research. In the course of the research, the evidence presented by the historian was compared with about 10 works of that period.

Key words. Amir Temur, “Zubdat at-tavorix”, mosque, granite, catapult, Hafiz-i Abru, construction, Saraymulkhanim, Samarkand, pattern, roof.

KIRISH

Amir Temur (1336–1405) tomonidan bunyod etilgan imoratlar Turonzamin memorchilik tarixida o’ziga xos o’ringa ega bo’lib, ushbu tarixiy obidalarning asosiy qismi asrlar osha o’z shukuhini saqlab kelmoqda. Ularning ayrimlari haqida esa, tarixiy manbalarda dalillar saqlanib qolgan xolos. Amir Temurning bunyodkorlik ishlari o’z davridanoq tarixiy asarlarda qayd etib borilgan. Bu manbalar XIV – XV asrlar memorchiligi borasida muhim ma’lumotlarga ega. G’iyosiddin Ali (XIV–XV), Nizomiddin Shomiy (vaf. 1412), Hofiz-i Abru (1361–1430), Sharafiddin Ali Yazdiy (vaf. 1454), Ibn Arabshoh (1388–1450), Fasih Xavofiy (1375–1442), Abdurrazzoq Samarqandiy (1413–1482), Muiniddin Natanziy (XIV asr 2 yarmi – XV asr boshlari) Rui Gonsales de-Klavixo (vaf. 1412) kabi tarixchi va sayyoh olimlarning asarlari shular jumlasidan. Shuningdek, Mirxond (1433–1498) va Xondamir (1475–1535) kabi keyingi avlod tarixchilari ham bu mavzuda o’z tarixnomalarida ma’lumot berib o’tganlar. Sharqshunos olim V.V. Bartold (1869–1930) aytganidek bu davr tadqiqotchisi: “Materiallarning tanqisligidan emas, balki ko’plab kutubxonalarga tarqalib ketgan, tanqidiy yondashish eng avvalo, tanqidiy nashr etishni taqozo etadigan materiallarning ko’pligidan qiyinchilikka duch keladi” [2:199].

Amir Temur jome’ masjid to’g’risida yozgan mualliflar orasida tarixchi va geograf olim Hofiz-i Abru o’zining “Zubdat at-tavorix” asarida kengroq ma’lumot berib otgan. Zero, unda XIV-XV asr tarixchilari asarlarida uchramaydigan muhim faktlar mavjud. Bugunki kunda yetarli darajada ilmiy tadqiqotlarga jalb etilmagan ushbu manbadagi ma’lumotlar orqali, masjid kirish eshigi peshtoqining 1897 yilga qadar mavjud bo’lgan koshinlari va uni bezab turgan Qur’oni karim

oyatlarini asl holidek tiklash hamda binoni qayta ta'mirlash uchun muhimdir. Shuningdek, Hofiz-i Abru masjid uchun tayyorlangan va bugungi kunda saqlanib qolinmagan ayrim detallar haqida ham qayd etib o'tgan. "Zubdat at-tavorix"da keltirilgan bu kabi ishonchli dallillar uning Amir Temur tarixi bo'yicha yozilgan tarixnomalar ichida birlamchi manbalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda xalq orasida "**Bibixonim masjidi**" nomi bilan tanilgan Amir Temur jome' masjidi Sohibqiron tomonidan bunyod etilgan imoratlar ichida o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero, bu inshootning Amir Temur davridagi Islom dini ustuni o'laroq Samarqand shahrida qurilishi: bir tomondan poytaxt shaharning musulmon dunyosidagi o'ziga xos ahamiyatini belgilab bersa; ikkinchi tomondan esa, tarixiy shaharlarimizda o'sha davr me'morchilik maktabining shakllanganligidan dalolat beradi. Masalaning keyingi tomoni bo'lmish mazkur obida va uning qurilish jarayoni to'g'risidagi tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar orlqali uning bizgacha yetib kelmagan ayrim detallari va bunyod etishda ishtirok etgan memorlar to'g'risida keng ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, jome' masjidi Amir Temurning Hindiston yurishidan so'ng, ya'ni 1399-1404 yillar mobaynida qurilgan. Tarixchi Hofiz-i Abru qayd etishicha: Sohibqiron Hind diyorida Samarqandga qaytib kelgach, hijriy 801 yil muborak Ramazon oyining¹ kirib kelishi munosabati bilan yirik bir jome' masjidi bunyod etishga farmon beradi [26:o'nbes; 876]. Ayni shu damdan boshlangan masjid qurilishi 1404 yil Amir Temurning Kichik Osiyo yurishidan qaytguniga qadar nihoyasiga yetkaziladi [26: 1026]. Biroq masjid kirish qismining peshtoqi oliy hukmdor nazdida biroz past ko'ringanligi bois uni buzib qaytadan qurishga buyuradi. Hofiz-i Abru bu haqda Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asariga yozilgan "Zayl" (ilova)da quyidagicha yozadi: "... *dorussaltana Samarqandda qurilgan jome' masjidining, - bu haqda aytib o'tildi, - kiraverishidagi ayvoni garchi ko'kka bo'y cho'zgan bo'lsa-da, ammo maqsuraga nisbatan pastroq ko'rinar edi...*" [18:392; 26:1026]. Fasih Ahmad Xavofiy ham bu borada "*Amir sohibqiron Masjidi jome'ni ko'zdan kechirdi...*

Saroyulkxonim madrasasining ayvoni juda ham balad qurilgan bolib, Amir Sohibqiron barpo etgan Jome' masjidining ayvoni unga nisbatan pastroq bo'lib qolgan...", deb yozadi. Ispan sayyoh elchisi Klavixio ham o'zining "Samarqandga sayohat kundaligi"da masjidning ushbu qismi qaytadan qurilganini va buni Amir Temurning shaxsan o'zi nazoratga olganligini yozadi [6:159]. Mazkur dalillar masjid peshtoqining keyinchalik qaytadan balandroq qilib qurilganini ko'rsatadi.

Qurilish xarajatlarining asosiy qismi Hind yurishidan qo'lga kiritilgan o'lja va mablag'lar hisobidan qoplanadi. Qurilishda sharqning turli o'lkalaridan kelgan mohir hunarmandlar ishtirok etgan bo'lib, inshoot xomashyolari ham mamlakatning uzoq o'lkalaridan Samarqandga olib kelingan. Zero, Amir Temur har qanday kasb egasida agar biron bir fazilat ko'rsa, unga ehtirom ko'rsatib, mamlakat poytaxtiga olib kelgan [20:398].

Hofiz-i Abru² nomi bilan tanilgan tarixchi va geograf olim Shihobiddin Abdulloh bin Lutfulloh (1361-1430)ning "Zayli Zafarnoma-i Shomiy"³ (*Shomiyning Zafarnomasiga ilova*) va "Zubdat-at tavorixi Boysung'uriy" (*Boysung'ur tarixining sarasi*) asarlari XIV-XV asrlar tarixiga oid birlamchi manbalardan bo'lib, muallif bu kitoblarni yozishda bevosita o'zi guvohi bo'lgan voqealar va Amir Temur devonining rasmiy hujjatlariga tayangan. Shuningdek, tarixchi unda G'iyosiddin Ali va Nizomiddin Shomiy kabi o'zidan oldingi olimlarning asarlaridan manba sifatida foydalanib, ularning ma'lumotlarini tahlil qilgan va to'ldirgan. Shu sababdan ham Fasih Ahmad Xavofiy va Abdurrazzoq Samarqandiy o'z tarixnomalarini yozishda bu asarga birlamchi manba sifatida tayanadilar [1:4; 13:18]. "Zubdat at-tavorix" oxirgi uch asr mobaynida Amir Temur va Temuriylar davrini o'rganuvchi olimlar e'tiborida bo'ldi [22:188-197].

² Hofiz-i Abru Xurosonning Xavof bo'linmasiga qarashli Behdodin mavzesida tug'ilgan. Hamadaon tahsil olib Amir Temur bilan uchrashgun (1386 yil)ga qadar Sulton Ahmad Jaloyir devonida kotiblik lavozimida ishlagan. Hofiz-i Abru haqda yana qarang: [3:74-92; 9:5-8; 10: 40-4; 11:346-347; 15: 42-74; 21:38-43; 22:188-197; 26: o'n uch-o'n to'qqiz].

³ Bu asarda Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" siga 1404 yil 13 mart – 1405 yil fevral oralig'idagi voqealar qo'shimcha qilingan. Asar 1412 yilda yozilgan va uning matlaridan 1423-1427 yillar mobaynida kitobat qilingan "Zubdat at-tavorix"ga ham kiritilgan. "Zayli Zafarnoma-i Shomiy" asarida Amir Temur jome' masjidi mavzusi Sharafiddin Ali Yazdiyga nisbatan ilgariroq yozilgan.

¹ Hijriy 801 yilning Ramazon oyi – milodiy 1399 yil 6 may – 5 iyun kunlariga to'g'ri keladi.

“Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy” asari Shohrux Mirzo topshirig‘i va uning o‘g‘li Boysung‘ur Mirzo homiyligida 1423-1427 yillar oralig‘ida yozilgan. Bu asar umumiy tarixga bag‘ishlangan “Majma’ at-tavorix”⁴ (*Tarixlar majmuasi*)ning to‘rtinchi jildi bo‘lib, mazmunan ikki qism (Amir Temur va Shohrux Mirzo davri tarixi)dan iborat. Asarda 1336 yildan to 1427 yilgacha kechgan tarixiy voqealar xronologik tartibda yozilgan.

Hofiz-i Abru “Zubdat at-tavorix”da Amir Temurning bunyodkorlik fa‘oliyati to‘g‘risida: “[Sohibqiron] xayrli ishlarining yana biri u qurdirgan imoratlaridir. Jahon uzra masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar, karvonsaroylar, sardobalar, quduqlar, korizlar⁵ va cho‘lu biyobonlarni obod qilguvchi suv [inshoot] larini bunyod qildi”, deb qayd etadi [26:21-22].

Samarqandda bunyod etilgan jome’ masjidi vasfi “Zubdat at-tavorix” asarining bir necha o‘rinlarida keltirilgan bo‘lib, dorussaltana Samarqand masjidi, Jome’ masjidi va Amir Temur jome’ masjidi nomlari bilan tilga oladi. Masjidning umumiy ta’rifi asarning “*Amir Sohobqironning fe‘l-atvori, xulqi va yosoqi tarixidan muxtasar xulosasi bayoni*”⁶ nomli sarlavhasi ostidagi faslida keltirilgan. Hijriy 801 yil voqealari bayoniga kelganda esa, “*Humoyun [Amir Temur] raiyatining dorussaltana Samarqand tomon qaytishi*” fasli oxirida muallif ortiqcha takrorlardan chekingan holda masjid haqida: uning bunyod etilishiga muborak ramazon oyining kirib kelishi bilan farmon berildi deb, “...*bu borada yuqoridagi faslda aytib o‘tgan edik*”, deb yozadi [26:876].

Jome’ masjidi haqidagi ilk faslda obidaning vasfi keltirilib, uning istehkomlari xoro⁷ toshlaridan,

mehrobi temir va po‘latdan qurilganligi⁸, devorlari g‘aroyib shaklda badiiy va latif kitobiy naqshlar bilan bezatilganligi, qariyb to‘rt yuz⁹ marmar toshli ustunlarini Hindistondan keltirilgan 95 ta yirik fillarga¹⁰ manjaniqlar¹¹ bilan ortib turli yo‘llar orqali tog‘lardan uzoq vaqtda Samarqandga olib kelingani haqida ma’lumot berib otilgan [2:80; 26:22]. XV asr mualliflaridan yana biri Fasih Xavofiy “Mujmali Fasihiy”da masjidni bunyod etgan usta hunarmandlarning boshliqlari Mahmud Dovud va Muhammad Jeldlar bo‘lganligini, Saroymulxonim madrasasini ham ular qurganligini, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yganliklari va masjidni madrasan past qilib qurganliklari uchun jazoga tortilganliklarini qayd etib o‘tadi [13:166].

Hofiz-i Abru jome’ masjidi binosining kirish eshigi peshtoqi borasida quyidagicha yozadi: “*Uning ayvoni eshiklari (“...va kengligi osmonlaru yercha bo‘lgan, ...jannatga shoshiling”)*¹² [oyatiga muvofiq] ochilar edikim, “*Ularga salom ila, omonlikda kiringlar, (deyilur)*.”¹³ [oyati] uning peshtoqiga naqsh qilingan erdi. [Uning] lavhalarida “...*Kim, unga kirsas, tinch bo‘ladir...*”¹⁴ [oyati], latif hikmat namunolari va daqiq san‘at ila yerga quyib ishlangan [bezaklari bilan] uyg‘unlashgan” [26:23]. Hofiz-i Abruning mazkur dalillari orqali Jome’ masjidining 1868 yil Samarqand qamali chog‘ida Rus podsholigi qo‘shinlari tomonidan o‘qqa tutilgan va 1898 yildagi zilzila tufayli qulab tushgan kirish qismi peshtoqidagi Qur’oni Karim oyatlarini qayta tiklash mumkin. Zero masjidning

⁴ “Majma’ at-tavorix” asarining 1-3 jildlari qadimiyatdan to Elxoniy Sulton Abusaid vafoti (1335 yil)ga qadar bo‘lgan tarixni o‘z ichiga oladi.

⁵ Koriz (forscha) – yer osti suvlarini yig‘ish va ularni yer yuzasiga chiqarish uchun quriladigan yer osti inshooti bo‘lib, aholini suv bilan ta’minlash va yerlarni sug‘orish maqsadida qo‘llaniladi. Koriz, asosan, tog‘oldi hududlarida quriladi. Tog‘oldi lalmi joylarga suv chiqarish maqsadida qurilgan maxsus ko‘tarma inshoot ham koriz deb yuritilgan.

⁶ Ushbu fasl “Zubdat at-tavorix” asarining Amir Temur shaxsi bilan bog‘liq barcha mavzularining qisqartirilgan xulosasi bo‘lib, muallif tomonidan asarning ilk mavzulari qatorida keltirilishi bugungi kundagi ilmiy ishlarning kirish qismini eslatadi. Bu uslub boshqa asarlarda uchramaydi. Bu haqda qarang: [25:2a – 7a; 26:8-34].

⁷ Xoro (granit) - qattiq, mustahkam va noyob tosh turlaridan biri.

⁸ Sharafiddin Ali Yazdiy masjid uchun yasalgan mehrobni yetti xil metal qorishmasidan tayyorlanganligini qayd etadi. Yana qarang: [14:347a].

⁹ Sharafiddin Ali Yazdiy 480 ta ustun deb keltiradi. Qarang: [14: 347a].

¹⁰ Sharafiddin Ali Yazdiy ham “Zafarnoma”da Hindistondan olib kelingan fillarning 95 ta ekanligini tasdiqaydi. Bu haqda yana qarang: [14:347a].

¹¹ Manjaniq (arabcha, toshotar harbiy qurol) – tosh, g‘o‘la va olovni uzoq masofaga otuvchi maxsus qurilma. Undan dushman qo‘shinlari ustiga hujum qilish vaqtida yoki qal’alar devorini yorish maqsadida foydalanilgan. Manjaniq qadimgi Yunon va Rimda ishlatilgan, ularning manbalarida katapult nomi bilan yuritilgan. Bu yerda manjaniq deb yuritilayotgan qurilma – yirik toshlarni fillarning ustiga yuklash va imorat qurilishida toshlarni yuqoriga ko‘tarish maqsadida ishlatiladigan moslamadir.

¹² Qur’oni Karim, 3-sura (Oli Imron surasi), 133-oyatdan. (Maqolada Qur’oni Karim oyatlari o‘zbekcha tarjimasi Abdulaziz Mansurning «Қуръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири»dan olindi) [16].

¹³ Qur’oni Karim, 15-sura (Hijr surasi), 46-oyatdan.

¹⁴ Qur’oni Karim, 3-sura (Oli Imron surasi), 97-oyatdan.

mustaqillik yillarida¹⁵ restauratsiya qilingan peshtoqining yuqori qismidagi koshinlari va arab kaligrafiyasidagi yozuvlari tiklanmagan.

O'z navbatida Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) masjid peshtoqida *“Eslang, Ibrohim [o'z o'g'li] Ismoil bilan birgalikda Uyning [Ka'baning] poydevorini ko'targanlarida [shunday duo qildilar]...”* mazmunidagi Baqara surasining 127 oyat ham bitilganligini qayd etib o'tadi [4:59].

Hofiz-i Abru Basra va Bag'dodlik ustozlar¹⁶ masjid binosini ma'qaliy¹⁷ naqshlar va bo'ryolar¹⁸ bilan bezaganligi, Fors va Kirmon usta to'quvchilari har bir xonasining andozasiga muvofiq ipak qolinlar tayyorlaganliklari, Halab ustalari esa, oltin singdirilgan metaldan qandillarni uning gumbazlarini yuqori qismiga o'rnatganliklari haqda ham yozgan [26:23]. Masjid uchun tayyorlangan qolin gilamlar, katta qandil va uning peshtoqidagi yozuvlar to'grisida o'sha davr tarixchilaridan faqatgina Hofiz-i Abru o'z asarida qayd etib o'tgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning *“Zafarnoma”* da, *“Jome' masjidining qurilishida Ozarbayjon, Fors, Hindiston va boshqa mamlakatlardan besh yuz sangtarosh jalb etilgan va yana besh yuz kishi tog'larda tosh kesish bilan shug'ullangan”* [14:347a], deb yozgan fikrlari qurilish jarayoni haqidagi ma'lumotlarni boyitadi. Bu o'z navbatida *“Zafarnoma”* va *“Zubdat at-tavorix”* asarlarining bir-birini to'ldirib kelishini anglatadi. Bu ikki asar Amir Temurning zafarli yurishlari tarixiga bag'ishlab bir vaqtning o'zida turli joylarda (biri 1423-1425 yillarda Fors viloyatida, ikkinchisi 1423-1427 yillarda Hirotda) yozilgan bo'lib, manbaviy asosiga ko'ra o'xshashlik tomonlarga ega, biroq, tuzilishi va mavzulari ko'lamli jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Hofiz-i Abruning *“Ushbu ulug' imorat ko'p vaqtlar humoyun [Sohibqiron] nomi va laqabi bilan ziynatlandi va ataldi”* [26:24], jumlasidan ma'lum bo'ladiki bugungi kunda Bibixonim nomi bilan ataluvchi ushbu masjid o'z davrida **Amir Temur Jome' masjidi** nomi bilan shuhrat qozongan.

Hofiz-i Abru Amir Temurning bunyodkorlik ishlaridagi muhim odatlaridan yana biri haqda *“Zubdat at-tavorix”* da Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlarida uchramaydigan quyidagi ma'lumotlarni ham keltiradi: *“Amir Sohobqiron har gal imorat [barpo] qilganida uni bir necha hissaga ajratib maxdumzodalar, amirlar va arkoni davlati [vakillari]ni har bir hissaga dorug'a¹⁹ etib tayinlar va o'zaro raqobat bilan ishlashlari uchun topshiriqlar berar edi. Qaysiki bir hissa [sohibi topshiriqlarni bajarishda] jiddu jahd qilayotganligini bilish maqsadida har tunda bir necha bor ulardan xabar olar edi. Kimniki ishi odimlagan bo'lsa, [unga] tahsin aytib in'omlaru suyurg'ol²⁰ berar edi va agar [qaysi birining] ishi orqada qolgan bo'lsa yana [xizmatga] da'vat qilar, [so'ngra] malomat qilib jazoga tortar erdi”* [26:24].

“Amir Temur jome' masjidi” mavzusi haqidagi ilk yozma ma'lumotlar G'iyosiddin Ali Yazdiyning *“Ro'znoma-i g'azovot-i Hindiston”*²¹ asari orqali bizgacha yetib kelgan bo'lib, u Nizomiddin Shomiy, Hofiz-i Abru va Sharafiddin Ali Yazdiy tarixnomalariga manbaviy asos vasifasini o'tagan. Bu mualliflar ham jome' masjidining qurilish jarayoniga shaxsan guvoh bo'lganliklari, asarlarida *“Giyosiddin Alining ma'lumotlaridan-da ko'proq faktlarni qo'llaganlaridan ma'lum”*²².

¹⁹ Dorug'a – mo'g'ulchadan *“nazoratchi”*, *“shahar hokimi”* ma'nolarini anglatadi. Dorug'a oliy hukmdorning hududlardagi noibi bo'lib, aholini ro'yxatga olish, mahalliy xalqdan qo'shin to'plash, pochta xizmatini yo'lga qo'yish, soliqlarni yig'ish va ularni oliy hukmdorlga yetkazish kabi vazifalarni bajargan.

²⁰ Suyurg'ol (mo'g'ulchadan *“in'om”*, *“sovg'a”*) ma'nolarinin bildiradi) – oliy hukmdor tomonidan arkoni davlat, sarkardalar, shahzodalar va yaqin kishilariga davlat oldidagi maxsus xizmatlari uchun beriladigan yer, suv kabi mulklar. Suyurg'ol tizimi Mo'g'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Yaqin Sharq mamlakatlarida urf bo'lgan. Suyurg'olga berilgan yer avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan. Suyurg'ol egalari davlatga to'lanadigan soliqlardan ozod etilib, olgan daromadi va o'ziga qaram aholidan ixtiyoricha foydalanish huquqiga ega bo'lgan. Amir Temur va temuriylar davrida suyurg'ol mulklari zabt etilgan yerlarning oldingi egalari va ularning farzandlariga ham berilgan, shuningdek, o'z farzandlari, nevaralari, qarindoshlari, atoqli lashkarboshilari, amir va beklariga ham suyurg'ol tarzida yer mulk bergan.

²¹ Amir Temurning Hindiston g'azovoti kundaligi birinchi bo'lib Nosiriddin Umar tomonidan yozilgan. Uning matnlarini G'iyosiddin Ali o'z asariga manba sifatida qo'llagan. Bu asarning nusxasi bizgacha yetib kelmagan.

²² Qiyoslash uchun qarang: [6:276-277; 14:3466; 19:189-191; 26:23].

¹⁵ Amir Temur jome' masjidi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda qaratilgan qaroriga binoan ta'mirlash ishlari olib borilgan.

¹⁶ Ustozlar – binokorlik sohasining mohir ustalari.

¹⁷ Ma'qaliy – Ko'fiy xatining bir turi. Bu xat turi asosan, bino va inshootlar devorlarini bezashda qo'llaniladi.

¹⁸ Bo'ryo (bo'yro) – qamishdan to'qiladigan to'shama mato, asosan, devorlarda bezak sifatida ilib qo'yilgan, shuningdek, gilam o'rnida ham ishlatilgan.

G'iyosiddin Alining yozishicha: “[*Amir Temur*] ...801 yil muborak Ramazon oyining to'rtinchi kunida²³ masjid uchun poytaxtning eng yaxshi joyini tanladi. Mashhur ustalar va me'morlar bu ulkan imoratning loyahasini tuzdilar va eng saodatli daqiqada uning poydevorini qura boshladilar...” [19:190]. G'iyosiddin Alining masjid borasidagi fikrlari umumiy madhlar va alqov baytlaridan boshlangan bo'lib, ular Nizomiddin Shomiy, Hofiz-i Abru va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlariga quyidagi tartibda so'zma-so'z ko'chib o'tgan:

1) Quroni Karimdan keltirilgan “*Albatta, Allohning masjidlarini faqat Allohga va oxirat kuniga iymon keltirganlar... obod qilur*”²⁴, oyat;

2) “*Kimki bir qushning uyasichalik masjid qursa, Olloh ta'olo u uchun jannatida bir uy bino qilur*”, mazmunidagi hadis;

3) “*Hindistondan yuzlandi dorulmulk sari Baxtli kunda saodatli yulduzu yaxshi fol bilan*”²⁵ mazmunidagi bayt.

4) Masjid binosi asosining mustahkamligi **Saddi Iskandariy** va **Misr ehromlariga** o'xshatilishi, vahokazo [8:276-277; 14:3466; 19:190; 26:23].

Yuqoridagi manbalarni qiyosiy tahlil qilish chog'ida Hofiz-i Abruining masjid ta'rifida keltirgan “...*Uning istehkomlari Saddi Iskandariy*²⁶ va *Ehrom*²⁷ binolari kabi xoro toshidan qurildi” [26:22], jumlasida G'iyosiddin Alida “... *Aleksandr devori (Saddi Iskandariy) va Ahriman*²⁸ binolari kabi haddan tashqari mustahkam” [19:190], Nizomiddin Shomiyda esa, “... *Saddi Iskandariydek mustahkam, Haramondek ulug'vor*” [8:277] shaklida berilgan. “Zafarnoma” va “Zubdat at-tavorix”da Haramon (نارمان) – shaklida keltirilgan so'z ehrom, piramida ma'nolarini beradi [23:20736].

²³ Milodiy 1399-yil 10-may. Shomiy, Yazdiy va Fasih Xavofiy ham shu sanani ko'rsatga. Hofiz-i Abru ham bu borada aniq kunini keltirmagan bo'lsada, G'iyosiddin Alining fikrini tasdiqlab, “...muborak Ramazon oyining boshlanishi bilan” deb keltiradi. Qiyoslash uchun qarang: [6:276-277; 13:158; 14:3466; 19:189-191; 26:23].

²⁴ Qur'oni Karim, 9-sura (Tavba surasi), 18-oyatdan.

²⁵ Sharafiddin Ali Yazdiy ushbu bayt o'rnida yuqorida qayd etilgan: “Agar osmon gumbazi bo'lmaganda masjid gumbazi olamda yagona bo'lar edi” mazmunidagi mubolag'ani ishlatgan.

²⁶ Saddi Iskandariy – bu Iskandar mayog'i.

²⁷ Ehrom – Misr Ehromlari nazarda tutilmoqda.

²⁸ Bu so'z (اهرمان) qo'lyozmada xato ko'chirilgan, yoki A.Semyonov xato o'qib tarjima qilgan. Aslida haramon (هرمان) bo'lishi kerak. Yana qarang: [19:190]

Sharafiddin Ali Yazdiy “*Agar osmon gumbazi bo'lmaganda masjid gumbazi olamda yagona bo'lar edi*”, degan mubolag'li jumlasida bilan, masjidni o'z davrining eng baland imoratlaridan biri bo'lganligiga ishora qilib o'tgan [14: 347a].

So'nggi temuriylar davri mualliflaridan Mahmud ibn Xovandsho – Mirxond va uning nevarasi²⁹ G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirlar ham o'z asarlarida Amir Temur Jome' masjidi haqida yozganlar. Ular faqtgina Amir Temurning Hind diyorida Samarqandga qaytgach jome' masjidi qurishga farmon berganini eslab o'tishgan xolos [17:192; 27:5021].

XIV–XV asr mualliflari ichida Hofiz-i Abruining Amir Temur siyosiy faoliyati va davr tarixiy jarayonlariga guvoh o'laroq keltirgan ma'lumotlari aniq va keng ko'lamliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, muallif bu haqda “... *haqiqatga yaqini shu erurkim, ushbu arzga yetkaziluvchi mavzu guvohligimizdan tashqari narsa emasdir*”, deb yozadi “Zubdat at-tavorix”da [26: 9].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Hofiz-i Abru Amir Temur hayotining oxirgi salkam 20 yili (1386-1405)da uning saroyi xizmatida bo'lib, devon ishlarida, diplomatik aloqalarida, harbiy yurishlarida, ilmiy majlislarida, bunyodkorlik ishlarida bevosita ishtirok etgan. Tarixchi XIV-XV asrlar voqea-hodisalarga shaxsan guvoh bo'lganligi haqida “Zubdat at-tavorix”da ham qayd etgan [26: 747; 852; 912; 1011 vkh]. Tarixchining arxitektura sohasidan ham xabardorligi Amir Temur jome' masjidi haqida keltirgan dalillaridan ma'lum. Zotan, u Baylaqon (Barlos)kanalining qurilish ilshlarida muhandis sifatida qatnashgan. Hofiz-i Abru va uni ilmiy merosining ayni mana shu jihatlariga XIV–XV asrlar tarixiga doir tadqiqotlarda yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Shu nuqtai nazardan, “Zubdat at-tavorix” asari ustidagi izlanishlar Movarounnahr va Xuroson tarixining XIV asr ikkinchi yarmi va XV asrning 30 yillariga oid tadqiqotlarni yangi faktlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Mazkur tarixnomaning birgina Amir Temur jome' masjidi mavzusi doirasida keltirilgan, boshqa asarlarda uchramaydigan yuqoridagi dalillari buni tasdiqlaydi. Shu jihatdan ham Hofiz-i Abruining “Zubdat at-tavorix” asari Amir Temur tarixini o'rganishda birlamchi manbalar qatorida turadi.

²⁹ Tarixchi Mirxond Xondamirning onasi tomonidan bobosi hisoblanadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурраззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Масъул муҳаррирлар: А.Қаюмов, Муҳаммад Али. – Тошкент, 2008. – Б. 631.
2. Бартольд В.В. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии / Сочинения. Т. II (часть 2). – Москва, 1964. – С. 199.
3. Бартольд В.В. Хафизы Аbru и его сочинения / Сочинения. Т. VIII. – Москва, 1973. – С. 74-92.
4. Бобур, Захириддин Муҳаммад. Бобурнома / Нашрга тайёрловчилар: Порсо Шамсиев, Содик Мирзоев. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1960.
5. Бўриев О. Соҳибқирон Амир Темур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 110.
6. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 350.
7. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент, 1968.
8. Низомиддин Шомий. Зафарнома / форс тилидан ўғирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳ ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов, жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники. – Тошкент: Ўзбекистон. 1996. – Б. 527.
9. Резаголизадех Ахангар Наргес Вахаб. Историография Хафиз-и Аbru в его Зейли Джама ат-таворих // Научный журнал Таджикского национального университета “Вестник”. Серия гуманитарных наук. – Душанбе: Сино. 2014. № 3/7. – С. 5-8.
10. Собрание восточных рукописей АН РУЗ. История / Состав. Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джамилова. – Ташкент, 1998. С. 40-43.
11. Стори Ч.А. Персидская литература. Биобиблиографический обзор, перевел с английского, переработал и дополнил Ю.Е. Брегель. – Т. I. – Москва, 1972. С. 346-347.
12. Темур тузуклари / форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. – Тошкент, 1991. – Б. 110.
13. Фасих Хавафий. Мужмали Фасихий / Форс тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи: тарих фанлари доктори, профессор, академик Д.Ю.Юсупова. – Тошкент: Фан, 2018. – 542 б.
14. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 4472. Фотофаксимил нашр / Нашрга тайёрловчи, сўз боши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи А.Ўринбоев. – Тошкент, 1972. – Б. 1302.
15. Якубовский А. Тимур (Опыт краткой характеристики) // Вопросы истории. – Москва, 1946. – №. 8-9. – С. 42-74.
16. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети. 2018. – 624 б.
17. Гиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Ж.Ҳазраткулов, И.Бекжонов. Масъул муҳаррир – А.Аҳмедов. – Тошкент, 2013. – Б. 1272.
18. Ҳофиз-и Аbru. Шомийнинг “Зафарномаи шоҳий” асарига илова. // Низомиддин Шомий. Зафарнома / форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи – О.Бўриев. – Тошкент, 1996. – Б. 380-404.
19. Гийāsаддин Али. Дневник похода Тимūra в Индию / Перевод с перс., предисл. и прим. А.А. Семенова. – Москва, 1958.
20. Ibn Arabshoh. Amir Temur Tarixi (Ajoib al-maqdur fi-tarixi Taymur) I-II qismlar / Arab tilidan tarjima va izohlar, so‘zboshi muallifi U.Uvatov. – Toshkent, 2019. – B. 511.
21. Faromarzi F. Hofiz-i Abru va uning ilmiy merosiga doir ayrim mulohazalar // TerDU ilmiy xabarnomasi, 2020. – № 2. – B. 38-43.
22. Faromarzi F. Hofiz-i Abru “Zubdat at-tavorix” asari va uning o‘rganilishiga doir // Марказий Осиёда ислом маданияти ва санъати: ўтмиш ва ҳозирги замон. “Бухоро – ислом маданияти пойтахти” номли форуми доирасида ўтказилган халқаро онлайн конференция материаллари. – Тошкент, 2020 йил 28-29 май. – Б. 188-197.
23. Dehxudo. Lug‘atnoma. علی اکبر دهخدا. لغتنامه.ج.۱۵. - تهران: مؤسسه انتشارات و چاپ دانشگاه تهران, ۲۰۷۳۶.
24. 24. Doktor Husayn Anvoriy. Farhang-i buzurg-i suxan. دکتر حسین انوری. فرهنگ بزرگ سخن. (ج.۸). - تهران, ۱۳۸۱/۲۰۰۳. ص. ۸۵۹۱.
25. 25. Hofiz-i Abru. Zubdat at-tavotix. حافظ ابرو. زبدة التواریخ. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo‘lyozmasi, № 4370/I. – 605 в.
26. 26. Hofiz-i Abru. Zubdat at-tavorix. حافظ ابرو. زبدة التواریخ. مقدمه, تصحیح و تعلیقات: سید کمال حاج سید جوادی. (ج.۱). - تهران, ۱۳۷۹/۲۰۰۱. ص. ۱۲۶۰.
27. 27. Mirxond. Ravzat us-safo. تاریخ روضه الصفا فی سیرة الانبیاء والملوک والخلفاء. تألیف محمد بن خاوندشاه بن محمد «میرخوانده»؛ به تصحیح و تحشیه جمشید کیانفر. جلد ششم - بخشی اول (امیر تیمور کورکان). (ج.۹). - تهران: اساطیر, ۱۳۸۰/۲۰۰۲. ص. ۵۰۲۱.